



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O`YIN YORDAMIDA AXLOQIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH

Achilova Mavluda Sa'dullayevna

CHDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedrasi dotsenti p.f.f.d(PhD)

Baxodirova Charos Jasurbek qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalaishi talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagи bolalarda o'yin yordamida axloqiy tarbiyani rivojlantirishning ahamiyatini ko'rib chiqadi. Maqolada o'yinlar bolalar uchun axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy ko'nikmalar va to'g'ri xulq-atvorlarni o'rgatishda qanday samarali vosita bo'lib xizmat qilishini yoritiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda o'yinning roli va uning pedagogik ahamiyati ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: axloqiy tarbiya, maktabgacha ta'lim, tarbiyaviy o'yinlar, o'yin faoliyati, o'yin texnologiyalari, nutq, pedagogik yondashuv.

Аннотация:

в данной статье рассматривается важность развития нравственного воспитания у детей дошкольного возраста посредством игры. В статье показано, как игры могут быть эффективным инструментом обучения детей моральным ценностям, социальным навыкам и правильному поведению. Показана роль игры и ее педагогическое значение в нравственном воспитании детей в дошкольных образовательных учреждениях.

Abstract:

This article examines the importance of developing moral education in preschool children through play. The article highlights how games can be an effective tool for teaching children moral values, social skills, and proper behavior. The role of



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

play and its pedagogical significance in the moral education of children in preschool institutions are shown.

Maktabgacha yosh – bolaning shaxsiyatining shakllanishi, uning hissiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishida muhim davrdir. Aynan shu yoshda bolalar dunyon anglashni boshlaydilar va ular uchun atrof-muhitni tushunishning asosiy vositasi o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bolalar nafaqat o'zlarining motorik ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki axloqiy qadriyatlarni ham o'rganadilar. O'yin – bu bolalar uchun muloqot, o'zaro munosabatlar, ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalarga amal qilishni o'rgatishning samarali vositasidir. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin yordamida bolalarda axloqiy tarbiyani rivojlantirishga katta e'tibor berish zarur. O'yin – bolalar uchun juda muhim faoliyat bo'lib, ular o'yin orqali o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, boshqa bolalar bilan muloqot qilish, mehnat va hamjihatlikni o'rganishadi. O'yin jarayonida bolalar ijtimoiy munosabatlarni, o'zaro hurmatni va to'g'ri xulq-atvorni o'rganadilar. Axloqiy tarbiya esa, bolalarda halollik, adolat, mehr-oqibat, o'zaro yordam, muloqot va jamiyatda o'z o'rnni topish kabi qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan. O'yin davomida bolalar: Halollik va adolat tushunchalarini anglab boradilar. Do'stlik, hurmat, hamkorlik kabi insoniy fazilatlarni o'zlashtiradilar. O'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qila boshlaydilar. O'yin orqali bolalar hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rishadi va to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'yinlar orqali bolalar o'zaro munosabatlarni o'rganishadi. Masalan, "Boshqa bolalarga yordam berish", "navbat kutush", "kechirim so'rash" kabi axloqiy qadriyatlarni o'yin jarayonida tabiiy ravishda shakilanadi. O'yin orqali bolalarni nutqi ham rivojlanadi. Shuningdek, o'yin metodlari nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda ham samarali bo'lib, bolalar og'zaki nutqni to'g'ri shakllantirishga o'rganadilar. Shaxsiy fikrimcha, bolalarning nutqini rivojlantirishda o'yin metodikasidan foydalanish nafaqat lingvistik mahoratni oshiradi, balki ularning ijtimoiy va axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga ham yordam beradi. O'yin jarayonida bola erkin fikrlash, o'z hissiyotlarini ifodalash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, rolli o'yinlar va ertak asosida tashkil etilgan muloqotli o'yinlar bolalarda nafaqat so'zlash qobiliyatini oshiradi, balki axloqiy qadriyatlarni ham singdiradi. Bundan tashqari, zamonaviy interfaol o'yinlar, masalan, nutqni rivojlantirishga



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

mo‘ljallangan stol o‘yinlari, didaktik kartalar va audio-ertaklardan foydalanish bolalarning e’tiborini jalg qilish va o‘rganish jarayonini qiziqarli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin texnologiyalarini keng qo‘llash bolalarning nutqiy rivojlanishini jadallashtirishga va ularni jamiyatda erkin muloqatga tayyorlashga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida o‘yin faoliyatining o‘rni beqiyos. O‘yin – bola uchun shunchaki hordiq chiqarish yoki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki uning ongli rivojlanishi, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishi va atrof-muhitni anglashida asosiy vosita hisoblanadi. Mening fikrimcha, bolalar uchun axloqiy tarbiyani quruq nasihat qilishdan ko‘ra, real hayotiy holatlarni o‘yin shaklida namoyish etish samaraliroq natija beradi. Masalan, bolalarga halollik, mehribonlik, yordamsevarlik kabi tushunchalarni tushuntirish uchun ularga ertak qahramonlari yoki rolli o‘yinlar orqali turli vaziyatlarni yaratib berish kerak. Shu tariqa, ular bu fazilatlarni o‘z tajribalarida sinab ko‘rishadi va o‘zлari uchun muhim xulosalar chiqaradilar. Bundan tashqari, o‘yinlar jamoaviy muloqotni rivojlantiradi va bolalarni ijtimoiy muhitga moslashishga o‘rgatadi. Masalan, "Kim birinchi yordam beradi?" yoki "Eng yaxshi do‘s" kabi o‘yinlar orqali bolalar o‘zaro hurmat, birdamlik va insonlarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Axloqiy tarbiya jarayoni faqat og‘zaki tushuntirish bilan cheklanmasdan, amaliy o‘yinlar orqali bolalarning yuragiga singdirilishi lozim. Menimcha, maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalar innovatsion o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanishlari kerak. Bunda didaktik o‘yinlar, interfaol mashg‘ulotlar va ertak terapiyasi kabi usullar juda samarali bo‘lishi mumkin. Agar bolalar axloqiy qoidalarni bolalikdan o‘yin orqali quvonch bilan o‘zlashtirsalar, kelajakda ular ongli, odobli va vijdonli inson bo‘lib yetishadilar. Shuning uchun men axloqiy tarbiya jarayonida o‘yin metodikasini asosiy vosita sifatida qabul qilish tarafboriman. Chunki aynan o‘yin orqali bola o‘zini erkin his qiladi, real hayotga tayyorgarlik ko‘radi va eng muhimi – axloqiy me’yorlarni tabiiy ravishda o‘zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin – bu faqat vaqt o‘tkazishning bir vositasi emas, balki axloqiy tarbiyani rivojlantirishda kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. O‘yin yordamida bolalardaadolat, halollik, mehnatsevarlik, empatiya kabi axloqiy qadriyatlar shakllanadi. Shuning uchun



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'yinlar axloqiy tarbiyaning ajralmas qismiga aylanishi zarur. Bu bolalarni nafaqat ta'lif oluvchi, balki jamiyatning mas'uliyatlari va insonparvar a'zolari sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi Toshkent-2019
2. O'yin orqali ta'lif olish metodik qo'llanma Toshkent-2020
3. Qodirova F., Tashpo'latova. Sh., Kyumova. N, Azamova. N
4. Rasulov. Y, Nurmatova . O Pedagogika fanidan o'quv qo'llanma Toshkent-2014
5. Mavlonova . R, To'rayeva . O, Xoliqberdiyev .K Pedagogika Toshkent-2011
6. Global environmental protection: strategies for tackling key challenges Tarmiza Hurvaliyeva, Zamira Teshabayeva, Lola Narimbayeva and Dilnoza Mutalova. E3S Web of Conferences 587, 02009 (2024)
7. Teshabayeva, Z. Differential Education as a Factor in Improving the Effectiveness of the Educational Process. Ankara International Congress on Scientific Research-XI, January 10-12, 2025 / Ankara, Türkiye (The Proceedings Book). [1482-1484]. URL: <https://www.ankarakongresi.org>.